

INNOVATSION YONDOSHUVLAR ORQALI MILLIY TARBIYANI
TAKOMILLASHTIRISH

Mamatxonova Umidaxon Maxamadali qizi
Andijon davlat pedagogika instituti talabasi
E-mail: mamatkhanova04@gmail.com
Tel: +998958070104

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17348110>

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy tarbiya tizimini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlarning o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Innovatsion texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish orqali yoshlarning fikrlash madaniyati va ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish yo'llari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik usullarni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish orqali tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish imkoniyatlari ham aytib o'tilgan. Tadqiqotda Prezident farmonlari, dolzarb islohotlar va ilmiy manbalar asosida milliy tarbiyani raqamli davr talablariga mos shakllantirish ham shular jumlasidan.

Kalit so'zlar: milliy tarbiya, innovatsiya, farmon va qarorlar, ta'lim, texnologiyalar, pedagogika, innovatsion metodlar, malaka.

Abstract: This article analyzes the role and importance of innovative approaches in improving the national education system. The ways of expanding the thinking culture and spiritual outlook of young people through the application of innovative technologies in the educational process are highlighted. The possibilities of increasing the effectiveness of the educational process by combining modern pedagogical methods with national values are also mentioned. The study includes the formation of national education in accordance with the requirements of the digital era based on presidential decrees, current reforms and scientific sources.

Keywords: national education, innovation, decrees and resolutions, education, technologies, pedagogy, innovative methods, qualifications.

Milliy tarbiya – bu yosh avlodga milliy g'urur, milliy ong, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik va milliy o'zlikni singdirish jarayoni hisoblanadi. Globallashuv, axborot texnologiyalari g'alabasi hamda shiddat bilan rivojlanib kelayotgan bir pallada milliy tarbiyani yosh avlod ongiga singdirish, uni zamonaviy metodlar bilan boyitish zarurati yuzaga kelmoqda. Innovatsion pedagogika, raqamli texnologiya va yangi metodologiyalar bu vazifani bajarishda asosiy yordamchi vositalarga aylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan ta'lim sohasida bir qator farmon va qarorlar qabul qilingan. Buning yaqqol isboti o'laroq 2022-2026-yillar davomida xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur PF-134 farmoni imzolandi. Unda ta'lim ta'lim sifatini oshirish, darslik va metodik qo'llanmalarni zamonaviylashtirish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish hamda ularni kompetensiyalarga asoslanga zamonaviy metodika bilan tayyorlash amaliyotini joriy etish nazarda tutilgan. Shu kabi tashabbus va islohotlar milliy tarbiyada innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini yanada oshirib, interaktiv metodlar, o'yin texnologiyalari, projekt usuli va guruhli ishlash yo'llaridan foydalanish orqali o'quvchilarning faolligini kuchaytiradi hamda ularni mustaqil fikrlashga rag'batlantiradi.

Innovatsiyalar shunchaki texnologiya taklif qilish emas balki ular pedagogik maqsadlar, mazmun va metodologiyalarni yangicha uslubda tashkil etishni nazarda tutadi. "Ta'lim va

tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar” qo'llanmasi pedagoglarga innovatsion metodlarni amaliyotga tadbiq etishda ko'plab qo'llanmalar beradi. Shuningdek, yangicha texnologiyalarning tarbiya mazmuniga kiritilishi va uning natijalari muhokama qilingan.

Bugungi kunda ta'lim texnologiyalari sohasidagi ilmiy yondashuvlar ham juda tez rivojlanib kelayotgani haqida ko'p bora ta'kidlanmoqda. Masalan, konseptual tarzda taqdim etilgan “Education 5.0” modeli ta'limda sun'iy intellekt, blokcheyn, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, LMS (ta'lim boshqaruv tizimi) va raqamli platformalar yordamida bilim almashish, masofaviy ta'lim va interaktiv muhiti shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Ushbu tushunchalar milliy tarbiyani yangi texnologik platformalar bilan uyg'unlashtirishda foydali ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Innovatsion usullarni tatbiq etishda ayrim cheklovlar ham bor. Ular pedagoglarning malaka darajasi yetarli bo'lmasligi va innovatsiyalar bilan ishlashga tayyor emasligi muammo bo'lishi, maktablardagi infratuzilma — kompyuterlar, internet, multimedia jihozlarining yetishmasligi — innovatsiyalarni keng qo'llashga to'siq bo'lishidir. O'quvchilar ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti farqli bo'lgan hududlarda teng imkoniyatlar yetishmasligi natijasida texnologiyalardan foydalanish darajasi ham turlicha bo'lishi mumkin.

Innovatsion yondashuvlarni milliy tarbiyaga tatbiq etishda bir qancha takliflar muhim ahamiyatga ega: pedagoglarning doimiy malaka oshirish kurslari, xalqaro tajribalarni o'rganish, pedagogik innovatsiyalar uchun grant va davlat qo'llab-quvvatlashi va shu kabilar. Monitoring va baholash mexanizmlarini joriy qilib, innovatsion tadbirlarning natijalarini doimiy tahlil qilish, bundan tashqari, ta'lim muhitida milliy kontent — o'zbek tili, tarix, adabiyot, san'at — elementlarini zamonaviy multimedia vositalar orqali taqdim etish kerak. Shu sohada quvonarli bo'lgan bir qancha yutuqlarimiz ham mavjuddir.

Xulosa qilib aytganda, milliy tarbiyani innovatsion yondashuvlar orqali takomillashtirish — zamon bilan uyg'un, lekin milliy o'zlikni yo'qotmaydigan yo'l. Prezident tomonidan belgilangan PF-134 farmoni ta'limni modernizatsiyalash va pedagoglarni qo'llab-quvvatlashda muhim huquqiy baza bo'lib xizmat qiladi. Innovatsion metodlar yoshlarning ma'naviy salohiyatini, mustaqil fikrlashini va milliy qadriyatlar bilan uyg'un rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilishi lozim

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov. “Ta'limda innovatsion texnologiyalar” T.:2008
2. M.Ochilov “Yangi pedagogik texnologiyalar”. Qarshi, 2000
3. S.Usmonov “Pedagogik texnologiya asoslari” T.:
4. R.J.Ishmuxammedov “Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari” T.:TDPU, 2004.
5. Z.Sharipova “Ta'lim texnologiyalari”.
6. PF-134 – “2024-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur” Prezident farmoni